

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03.10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RAXMATOV TEMUR SOTIBOLDIYEVICH

**MOLIYAVIY GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TIJORAT
BANKLARINING AN‘ANAVIY OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
YO‘LLARI**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent–2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Raxmatov Temur Sotiboldiyevich

Moliyaviy globalizatsiya sharoitida O'zbekiston tijorat banklarining
an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirish yo'llari.....3

Рахматов Темур Сотиболдиевич

Пути развития традиционных операций коммерческих банков
Узбекистана в условиях финансовой глобализации29

Rakhmatov Temur Sotiboldievich

Ways to develop traditional operations of commercial banks in Uzbekistan
in the context of financial globalization.....55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03.10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RAXMATOV TEMUR SOTIBOLDIYEVICH

**MOLIYAVIY GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TIJORAT
BANKLARINING AN‘ANAVIY OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
YO‘LLARI**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent–2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
№ V 2020.3.PhD/Iqt420 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Tojiyev Rahmatilla Rahmonovich**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Alimardonov Ilhom Muzrobshohovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismailov Alisher Agzamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: «Trastbank» xususiy aksiyadorlik banki

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/03.10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «25» 04 soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49.Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail:tdui@tdiu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1288 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871)239-28-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «11» 04 kuni tarqatildi.
(2023 yil «11» 04 dagi 32 -raqamli reyestr bayonnomasi).



M.P. Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiy rivojlanish internet va axborot texnologiyalari (IT) yordamida raqamlashtirish hamda integratsiyalashuv jarayonlari bilan o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshmoqda. Bank sohasi ham shiddat bilan raqamlashtirilib, tashkiliy jihatdan butunlay yangi format, ya’ni raqamli bank xizmatlari ko‘rinishida namoyon bo‘lib, ayniqsa bu to‘lovlar xizmatida yaqqol ko‘rinmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, “2019-yilda butun dunyoda 2,1 milliard iste’molchi to‘lash yoki pul yuborish uchun mobil hamyonidan foydalangan bo‘lsa, 2020-yilda elektron tijorat hajmi 5855 mlrd. AQSh dollarini, mobil chakana savdo hajmi 1120 mlrd. AQSh dollarini va raqamli tovarlar 139 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan”. Bugungi raqamli bank xizmatlariga ortib borayotgan talablarni imkon qadar to‘laroq qondirishda ko‘plab muammolar mavjudligi tijorat banklarining an’anaviy operatsiyalarini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Jahonda moliyaviy globalizatsiya sharoitida tijorat banklarining an’anaviy operatsiyalarini rivojlantirishga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Raqamli bank xizmatlarini ommalashtirishning innovatsion yo‘llarini joriy etish, tijorat banklari mobil ilovalari orqali mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish hajmini oshirish, on-layn banklar mijozlari sonini ko‘paytirish, mamlakatlararo on-layn xizmat ko‘rsatish, bank xizmatlarini innovatsion va texnologik jihatdan takomillashtirish, bank xizmatlarini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida bank xizmatlarining sifati va ko‘lamini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bank tizimini transformatsiyalash borasidagi islohotlarni amalga oshirishda zamonaviy, malakali kadrlar bilan ta’minlash, bank faoliyatini zamonaviy va raqamli texnologiyalar bilan jihozlash, yangi bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali islohotlar samarasini oshirish asosiy vazifa hisoblanadi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “2022-yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023-yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko‘rib, keyinchalik inflyatsiya va davlat budjeti taqchilligi ushbu ko‘rsatkichdan oshmasligi ta’minlab borilishi, bunda davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi”¹ belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi, o‘z navbatida, tijorat banklarida aholi va tadbirkorlar uchun nisbatan yuqori talab namoyon etuvchi xizmatlarning davriy monitoring asosida saralab turiluvchi to‘plami (paketi)ni ishlab chiqish hamda ularni qulaylashtirilgan tariflarda taqdim etgan holda bank yalpi daromadi tarkibida foizsiz daromadlar hajmini oshirish, an’anaviy xizmatlarni qulay

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2022.- 4-b.

shaklda taqdim etish orqali barqaror resurs manbai hisoblangan muddatli va jamg'arma depozitlar mablag'larini keng jalb etish yo'li bilan chakana kreditlash hajmini oshirish, tijorat banklarida an'anaviy operatsiyalar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va muhim omillari ta'sirining ekonometrik modeliga asoslangan holda uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son "Bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan an'anaviy operatsiyalarni rivojlantirish va uni amaliyotga samarali tatbiq etish, an'anaviy operatsiyalarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan D.Koks, F.Modilyani, D.Polfreman, P.S.Rouz, J.Sinki², MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan I.T.Balabanov, Ye.P.Jarkovskaya, Ye.F.Jukov, O.I.Lavrushin, V.M.Usoskin, Ye.B.Shirinskayaning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan³.

Bank xizmatlari bozorida mijozlarning ehtiyojlari va ularni qondirish, shuningdek, bank xizmatlari kabi masalalarni tadqiq qilish, rossiyalik olimlar Ye.F.Jukov, O.I.Lavrushin, T.N.Nesterova, A.N.Ivanov, va fransiyalik iqtisodchi olim S.D.Kusserning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Piter S.Rouz⁴ jamoatchilikka banklar tomonidan taqdim qilinadigan xizmatlar, xususan, banklar

² Роуз П.С. Банковский менеджмент. Пер. с англ. – Москва: Дело, 1997. - 743 с; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007. - 1018 с.

³ Балабанов И.Т. Банки и банковское дело / Под ред. И.Т. Балабанова. - Санкт-Петербург: Питер, 2002. - 304 с; Жарковская Е.П. Банковское дело. – Москва: Омега-Л, 2004. - 440 с; Жуков Е.Ф. Банки и банковские операции / Под ред. Е.Ф. Жукова. – М.: Банки и биржи, 1997. - 191 с; Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. / Под ред. О.И. Лаврушина. - 3-е изд. – Москва: Кнорус, 2005. - 766 с; Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – Москва: МКЦ ДИС, 1997. - 464 с; Ширинская Е.Б. Операции коммерческих банков. – М.: Финанс и статистика, 1993. - 144 с.

⁴ Роуз П.С. Банковский менеджмент. – М., 2007.

to'g'risida shunday deydi: "Bank – moliyaviy xizmatlarni taqdim etuvchi, jamiyatning pul mablag'larini professional boshqarib turuvchi, shuningdek, iqtisodiyotda ko'pgina funksiyalarni bajaruvchi firmadir". Bundan tashqari P.S. Rouz o'quv qo'llanmasida valyutani ayirboshlash, tijorat veksellar hisobini yuritish va korxonalariga kreditlar taqdim qilish, jamg'ariluvchi depozitlar, qimmatliklarni saqlash, hukumat faoliyatini kreditlar bilan qo'llab-quvvatlash, chek hisobraqamlari (talab qilib olinguncha depozitlari), trust xizmatlari va oxirgi yillarda o'z rivojini topgan iste'mol kreditlarini taqdim qilish, sug'urta xizmatlarini sotish, nafaqa rejalarini sotish, qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha brokerlik xizmatlarini taklif qilish singari bank xizmatlari ustidan tadqiqot ishlarini olib borgan.

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy jihatlari I.Larionova⁵ tomonidan bank aktivlarining vazifalari, likvidligi, risk darajasi, joylashtirish muddati va subyektiga qarab tasniflashni taklif etilgan.

Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha, tijorat banklari an'anaviy operatsiyalarining samaradorligini ta'minlash muammolari doirasida respublikamizning bir qator iqtisodchi olimlari ham ilmiy izlanishlarida o'z qarashlarini bildirishgan. Xususan, respublikamizda bank aktivlari samaradorligini oshirish borasida banklarda kredit tizimi va siyosatini rivojlantirish bo'yicha N.Karimov⁶, M.Ermatov⁷, bank aktivlari likvidligini ta'minlash bo'yicha R.Tojiyev⁸, O.Sattarov⁹, bank aktivlari bilan bog'liq risklarni barqarorlashtirish bo'yicha A.Kifak¹⁰, N.Karimov¹¹ ilmiy izlanishlar olib borishganlar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi moliyaviy globalizatsiya sharoitida O'zbekiston tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

moliyaviy globalizatsiya sharoitida tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirishni nazariy va huquqiy asoslarini tadqiq etish va muallif xulosasini shakllantirish;

⁵ Ларионова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. – Москва: Консалтбанк, 2003. – 272 с.;

⁶ Karimov N.G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari, doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2008.

⁷ Ermatov M.K. CAMEL reyting tizimi va bank auditini takomillashtirish muammolari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 2008.

⁸ Tojiyev R.R. Tijorat banklari likvidligini boshqarishning innovatsion strategiyasi ("Agrobank" OATB misolida). Nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 2011.

⁹ Sattarov O.B. Tijorat banklari likvidligini ta'minlashni takomillashtirish. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 2009.

¹⁰ Кифак А.А. Измерение риска в целях регулирования национальных банковских систем в условиях современных кризисных вызовов. Дис. канд. экон.наук, 2015.

¹¹ Karimov N.F. Tijorat banklarida auditni tashkil qilish va uni uslubiyotini takomillashtirish muammolari. Doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2008.

moliyaviy globalizatsiya sharoitida tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlanishidagi xorijiy tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va ulardan mamlakat banklari tizimida foydalanish yo'llarini asoslash;

tijorat banklarining depozit va kredit xizmatlarining mohiyati va ularning banklar rentabelligidagi o'rnini ilmiy izohlash, ularni statistik tahlil qilish hamda ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish;

O'zbekiston tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash;

bank xizmatlari va banklar faoliyatini takomillashtirish hamda bank xizmatlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini yoritish, shuningdek ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti moliyaviy globallashuv sharoitida banklarning faoliyati va ushbu jarayonlarda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot olib borishda jadvallarni analitik taqqoslash, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslama tahlil ma'lumotlarini guruhlash, ularni o'zaro solishtirish yo'li bilan statistik qayta ishlash usuli, miqdor va sifat ko'rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra ustuvor ravishda huquqiy va texnik tavsiflar bilan belgilanuvchi "bank operatsiyasi" tushunchasi bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag'larini jalb qilish hamda uni joylashishini nazarda tutuvchi, aniq iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank va bank-mijozning harakatlari majmui sifatida takomillashtirilgan;

tijorat banklarida aholi va tadbirkorlar uchun nisbatan yuqori talab namoyon etuvchi xizmatlarning davriy monitoring asosida saralab turiluvchi to'plam (paketi)ni ishlab chiqish hamda ularni qulaylashtirilgan tariflarda taqdim etgan holda bank yalpi daromadi tarkibida foizsiz daromadlar hajmini oshirish taklifi asoslangan;

tijorat banklarining depozit va kredit bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirishda ularning shartlarida an'anaviy xizmatlarni qulay shaklda taqdim etish orqali barqaror resurs manbai hisoblangan muddatli va jamg'arma depozitlar mablag'larini keng jalb etish yo'li bilan chakana kreditlash hajmini oshirish taklifi asoslangan;

tijorat banklarida an'anaviy operatsiyalar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va muhim omillari ta'sirining ekonometrik modeliga asoslangan holda 2026-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bank xizmatlarini diversifikatsiyalash darajasini oshirish, tasniflangan aktivlar tarkibini yaxshilash va mavjud bank texnologiyalarini takomillashtirish yo'li bilan brutto aktivlarining daromadlilikini oshirish taklifi berilgan;

zamonaviy bank texnologiyalarini joriy qilish orqali chakana kreditlar berish jarayoni samaradorlini oshirish yo'li bilan bank daromadlari miqdorini oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

tijorat banklari barqarorlik darajasini oshirish yo'li bilan hissali ishtirok shaklidagi investitsiyalar miqdorini ko'paytirish taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ularni iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahliliga, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda rasmiy statistik va amaliy ma'lumotlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki manbalari, tijorat banklarining yillik hisobotlari, rasmiy manbalardan olingan statistik ma'lumotlardan foydalanish, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar tomonidan aniq me'yoriy-huquqiy hujjatlar va amaliy ma'lumotlar asosida, xususan, tijorat banklarining yillik hisobotlarini tahlil qilish asosida o'rganishlar o'tkazishga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan kelgusida tijorat banklari operatsiyalari tarkibini shakllantirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda hamda iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida "Bank ishi", "Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish" fanlarini o'qitishda va o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni respublikamiz tijorat banklarining operatsiyalarini takomillashtirish va tijorat banklarida yangi bank mahsulotlari hamda xizmatlarini ishlab chiqish hamda ularning sifatini oshirishda qo'llanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Moliyaviy globalizatsiya sharoitida O'zbekiston tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra ustuvor ravishda huquqiy va texnik tavsiflar bilan belgilanuvchi "bank operatsiyasi" tushunchasining bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag'larini jalb etish hamda uning joylashishini nazarda tutuvchi, aniq iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank va bank-mijozning harakatlari majmui sifatida takomillashtirilgan ta'rifidan "Pul va banklar" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug'i). Mazkur tushuncha ta'rifining o'quv manbalarga kiritilishi talabalar va bo'lg'usi mutaxassislarining tijorat banklari operatsiyalari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalari kengayishi hamda ulardan amaliyotda samarali foydalanish imkonini yaratgan;

tijorat banklarida aholi va tadbirkorlar uchun nisbatan yuqori talab namoyon etuvchi xizmatlarning davriy monitoring asosida saralab turiluvchi to'plami (paketi)ni ishlab chiqish hamda ularni qulaylashtirilgan tariflarda taqdim etgan holda bank yalpi daromadi tarkibida foizsiz daromadlar hajmini oshirish taklifidan "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan "Tijorat banklarida raqamli ekotizimni rivojlantirish va mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatishning zamonaviy masofaviy bank mahsulotlari ko'lamini kengaytirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2023-yil 17-fevraldagi 19/04-102-son dalolatnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida tijorat banklarida aholi va tadbirkorlar uchun nisbatan yuqori talab namoyon etuvchi

xizmatlar to'plami (paketi)ni ishlab chiqish hamda ularni qulaylashtirilgan tariflarda taqdim etish imkoni yaratilgan;

tijorat banklarining depozit va kredit bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirishda ularning shartlarida an'anaviy xizmatlarni qulay shaklda taqdim etish orqali barqaror resurs manbai hisoblangan muddatli va jamg'arma depozitlar mablag'larini keng jalb etish yo'li bilan chakana kreditlash hajmini oshirish taklifidan "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan "Tijorat banklarida raqamli ekotizimni rivojlantirish va mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatishning zamonaviy masofaviy bank mahsulotlari ko'lamini kengaytirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2023-yil 17-fevraldagi 19/04-102-son dalolatnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida tijorat banklarining an'anaviy xizmatlarni qulay shaklda taqdim etish orqali chakana kreditlash hajmini oshirish imkoni yaratilgan;

tijorat banklarida an'anaviy operatsiyalar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va muhim omillari ta'sirining ekonometrik modeliga asoslangan holda 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan "Tijorat banklarida raqamli ekotizimni rivojlantirish va mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatishning zamonaviy masofaviy bank mahsulotlari ko'lamini kengaytirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2023-yil 17-fevraldagi 19/04-102-son dalolatnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida tijorat banklarida an'anaviy operatsiyalar rivojlanishining asosiy parametrlarini uzoq muddatli davrda o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda 1ta va mahalliy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Uning hajmi 126 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimidagi anʼanaviy operatsiyalarning nazariy va huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimidagi anʼanaviy operatsiyalarning mohiyati hamda Oʻzbekiston tijorat banklarining anʼanaviy operatsiyalarini rivojlantirishning nazariy va huquqiy asoslari koʻrib chiqilgan.

Banklarni transformatsiya qilish jarayonida mijozlarning talablari ortib borishi muqarrar va bu borada ilgʻor innovatsion bank xizmatlari sifatli koʻrsatilmasligi natijasida bank mijozlarining oʻz bankiga ishonchi kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada bank mijozlari banklarini almashtirishga yoki boshqa bank xizmatlaridan foydalanishga harakat qiladi. Shuning uchun banklarda mijozlar talablariga binoan faoliyatni transformatsiya qilish, yaʼni bankning mahsulot va xizmatlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bank xizmatlari yaratishni taqozo etadi.

Bank mahsuloti quyidagilar hisoblanadi:

toʻlov mablagʻlarini yaratish;
xizmatlarni taqdim qilish.

Toʻlov mablagʻlarini yaratish butun iqtisodiyot miqyosida (yoki boshqacha aytganda makrodarajada) olinadi. Maʼlumki, mehnat mahsulotlarini ayirboshlash bir mahsulotning boshqa mahsulot turiga almashtirish shaklida emas, balki sotib olish-sotish shakli koʻrinishida amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sotib olish-sotish jarayonini amalga oshirish uchun umumiy toʻlov mablagʻlari koʻrinishidagi pul zarur boʻladi. Toʻlov mablagʻlarisiz tovar ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida mehnat mahsulotlarini ayirboshlash imkoniyati boʻlmaydi. Markaziy bank moddiy boyliklarning aylanishi, ishlatilishi va isteʼmol qilinishi, shuningdek, ishlab chiqarish jarayoni davom etishi uchun zarur pul mablagʻlarini chiqaradi.

Bank mahsulotining ikkinchi tarkibiy qismi boʻlgan bank xizmatlarini quyidagi tartibda tasniflash mumkin (1-jadval).

1-jadvaldan koʻrinib turibdiki, bank xizmatlarini oʻziga xos va oʻziga xos boʻlmagan turlarga ajratish mumkin. Oʻziga xos xizmatlar tarkibiga bank tomonidan amalga oshiriladigan 3 ta operatsiyani kiritish mumkin:

1) depozit operatsiyalari; 2) kredit operatsiyalari; 3) hisob-kitob operatsiyalari.

Depozit operatsiyalari deganda mijozlar mablagʻlarining bank omonatlariga (depozitlariga) koʻchishi tushuniladi. Mijozlar bankka qoʻygan pul mablagʻlari uchun foiz toʻlovlarini oladilar.

Tijorat banklari maxsulotlarining tarkibiy tuzilishi ¹²

Tasniflash mezonlari	Taqdim qilinayotgan xizmatlar turi
Bank faoliyati xususiyatiga muvofiq bo'lishiga qarab	O'ziga xos bo'lgan xizmatlar O'ziga xos bo'lmagan xizmatlar
Xizmat ko'rsatiladigan subyektlarga qarab	Yuridik shaxslar Jismoniy shaxslar
Bank resurslarini jalb qilish va joylashtirish usuliga qarab	Aktiv operatsiyalar Passiv operatsiyalar
Taqdim qilingan xizmatlar to'loviga qarab	Pulli xizmatlar Pulsiz xizmatlar

Kredit operatsiyalari bankning asosiy operatsiyalari hisoblanadi. Chunki banklarda foiz daromadlarining asosiy qismi kreditlar taqdim etish jarayonidan olinadi. Lekin ba'zi mamlakatlarda (asosan iqtisodiy krizis mavjud bo'lgan va inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda) yuqori xatar darajasidan qochib, tijorat banklarida asosan kreditlash emas, balki xatar darajasi past bo'lgan bank operatsiyalarini (masalan, valyuta operatsiyalarini va hokazo) amalga oshirish afzal ko'riladi.

Hisob-kitob operatsiyalari banklar tomonidan naqd va naqdsiz ko'rinishda amalga oshiriladi. Mijoz topshirig'iga ko'ra banklar ularga tovar-moddiy boyliklarni sotish yoki sotib olish bilan bog'liq to'lovlarni amalga oshirish, ish haqlarini to'lash, soliq, yig'imlar bilan bog'liq va boshqa zarur to'lovlarni amalga oshirish uchun turli xil hisobraqamlar ochadilar. Bu jarayonda tijorat banklari vositachi vazifasini bajarib, ko'rsatgan xizmatlari uchun o'z xizmat haqini oladi.

Bundan tashqari, banklarning noan'anaviy xizmatlar turlari mavjudki, uning tarkibiga qolgan boshqa barcha bank xizmatlari kiradi.

Bunday bank xizmatlari ham yuridik shaxs maqomiga ega mijozlar uchun, ham jismoniy shaxslar uchun ko'rsatiladi. Bank amaliyotida yuqoridagi bank xizmatlari to'plami banklarda bir xil bo'lishi mumkin, faqat ularning ko'lami har xil bo'ladi.

Bank xizmatlarning pulli bo'lishi va bankning daromadi nuqtai nazaridan qaralganda, qo'shimcha aniqlik kiritishga yordam beruvchi quyidagi belgilarni kiritish mumkin: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan xizmatlar; qimmat va arzon xizmatlar. Bankning ko'pgina aktiv operatsiyalari bankka daromad olish imkoniyatini beradi va aksincha omonatlar (depozitlar) bo'yicha foizlar to'lanishini taqazo etuvchi passiv operatsiyalar bank uchun xarajat keltiradi. Ba'zi bank xizmatlari ko'p mehnatni talab qiladi, shuning uchun ularning narxi qimmat bo'ladi. Masalan, akkreditivni rasmiylashtirish va uni amalga oshirish xizmati to'lov topshiriqnomaga asosan mijozning pulini o'tkazib yuborish xizmatiga nisbatan bankka qimmatga tushadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, moddiy mahsulotning harakatlanishiga mos ravishda bank xizmatlari 2 turga bo'linadi: moddiy mahsulotning harakati bilan bog'liq xizmatlar va sof xizmatlar. Banklarda o'z pul mablag'lari operatsiyalari

¹² Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

yordamida asosan moddiy tovarlar harakatiga xizmatlar ko'rsatiladi, bularning asosiy qismi birinchi turga mansub bo'ladi. Tovar harakatiga yordam beruvchi bankning bu xizmatlari (masalan, korxonalariga transport xizmatlari, aloqa, savdo) yangi qo'shimcha narxni keltirib chiqaradi. Bank tomonidan sof xizmatlar bevosita moddiy ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar, shuningdek shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun ma'lum toifadagi fuqarolarga taqdim etiladi.

Ta'kidlab o'tilganidek, bank mahsuloti banklarning turli xizmatlaridir. Ishlab chiqarish korxonalari xizmatidan farqli o'laroq, bank xizmati moddiy ko'rinishga ega emas. Shuning uchun, mehnat mahsuli predmet shaklini oladigan moddiy ishlab chiqaruvchi tarmoqlardan farqli ravishda bank xizmatlarini omborlarda saqlash, zaxira shaklida ishlab chiqarish mumkin emas.

Bank xizmatlarining muhim xususiyatlaridan biri ularning ishlab chiqarish xarakteri hisoblanadi. Hatto oddiy ko'rinishga ega bank omonatlariga fuqarolar va korxonalarining mablag'larini jalb etish amaliyoti yuqori ishlab chiqarish ma'nosiga ega. Bunda bank nafaqat pullarni yig'adi, balki "ishlamayotgan" mablag'larni ishchi holatga keltiradi. Shu tariqa bank operatsiyalari mijozlarning xo'jalik faoliyatiga xizmat ko'rsatish orqali ishlab chiqarishning rivojlanishi va jadallashuviga sabab bo'ladi.

Bank xizmatlarining yana bir xususiyati shundan iboratki, bunda yuqori miqdordagi mablag'lar bir hisobraqamdan ikkinchi hisobraqamga, bir hududdan ikkinchi hududga ko'chadi, ya'ni bunda kapitalning pul ko'rinishdagi harakati vujudga keladi. Masalan, kreditlash bilan bog'liq bank operatsiyasini olaylik. Ma'lumki, taqdim etilgan kredit belgilangan muddat ichida bankka ustama foiz to'lovlari bilan birga qaytib kelishi lozim. Bu shuni anglatadiki, qarzdor kreditni shunday ishlatmog'i lozimki, bunda qarzdor hech bo'lmaganda bank foizlarini to'lash uchun foyda ko'rishi lozim. Mijoz kredit shartnomasiga asosan kredit mablag'larini "yeb ketish" (iste'mol maqsadlari) uchun emas, balki kapital shaklida ishlatishga majbur bo'ladi.

Aytib o'tish joizki, banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar boshqa korxonalar va tashkilotlar tomonidan ham oshirilishi mumkin, ya'ni ular bank monopoliyasi hisoblanmaydi. Masalan, maxsus korxonalar va agentliklarda buxgalterlik yordami ko'rsatish, seyflarni ijaraga berish va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatilishi mumkin. Binobarin belgilab o'tish mumkinki, banklarda nobank operatsiyalarini ham bajarish mumkin. Bunday fikr bildirilishiga sabab – bozor iqtisodiyoti sharoitida murakkab raqobat vujudga kelishi natijasida yuqori daromadli operatsiyalarni kengaytirish imkoniyati cheklanadi va banklar, o'z navbatida, daromad olishning yangi manbalarini qidirishga majbur bo'ladilar.

Demak, bank xizmatlarining xususiyatlarini quyidagi tartibda ajratish mumkin:

zaxira sifatida ishlab chiqarish;

ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lish;

kapital, bank xizmatlarining obyekt sifatida xizmat qiladi;

aktiv va passiv operatsiyalarni qamrab oladi;

bankning monopoliyasi hisoblanmaydi;

nobank operatsiyalariga ham tegishli bo'lish.

Bank xizmatlari standart to'plamining evolyutsiyasi shundan iboratki, ko'pgina omillarning (bunda nafaqat raqobat, balki yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, yangi bank mahsulotini yaratish) ta'siri ostida xizmatlar bozorida ularning ko'lami ko'payishi bilan bir qatorda ularning tarkibi ham kengayib bormoqda. Bunday holatni mamlakatimiz tijorat banklari amaliyotida ham kuzatish mumkin. Bundan bir necha yillar muqaddam mamlakatimiz tijorat banklari sertifikatlar, veksellar, kredit kartochkalari bilan ishlamaganlar; bank xizmatchilari leksikonida faktoring, lizing, kontokorrent, opsiya, bankomat va boshqa tushunchalar ishlatilmagan. Bunday holat vujudga kelishining asosiy sababi, banklar markazlashtirilgan tizimda faoliyat yuritgan va bunday tizimda ma'lum bir bank xizmatlariga ehtiyoj bo'lmagan. Bozor iqtisodiyoti banklar oldiga yangi talablarni qo'ydi: banklarda mijozlar manfaatlariga to'g'ri keluvchi yangi operatsiyalarni o'zlashtirishga majbur bo'lindi. Afsuski, banklarda bu operatsiyalar birdaniga o'zlashtirib olinmaydi, chunki ma'lum darajada vaqt o'tgan bo'lsa-da, banklarda hali yetarli darajada tajriba ortishga ulgurilmagan. Ba'zi operatsiyalar inflyatsiya darajasi yuqori bo'lishi, zamonaviy aloqa vositalari yetarli darajada bo'lmasligi natijasida o'z rivojini topmagan. Bundan tashqari, aksariyat tijorat banklarida yangi bank xizmatlari to'g'risida yetarli darajada tasavvur mavjud emas, bu borada bank xodimlarini yangi xizmatlarning mohiyati va ularni mijozlarga taqdim etish amaliyoti borasida o'qitish lozim.

T.N. Nesterova¹³ tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'quv qo'llanmasida batafsil to'xtalib o'tgan. Mazkur o'quv qo'llanmada olim xalqaro tartib asosida banklarning tashqi iqtisodiy faoliyatli yo'nalishlarini ko'rib chiqqan. T.N. Nesterovanning fikricha, tashqi iqtisodiy faoliyat va pul - valyuta bozorida operatsiyalarni o'tkazish bilan bog'liq bank xizmati ma'lum darajada xatar bilan bog'liq o'ziga xos va murakkab amaliyotidir. U xorij valyutasida operatsiyalarni amalga oshirishni faqat xalqaro hisob-kitob qoidasini biluvchi, pul va valyuta bozorida bitimlarni tuza oladigan, valyuta bozorining konyukturasini tahlil qila oladigan, shuningdek o'z mamlakatida valyuta operatsiyalarini tartibga soluvchi huquqiy bazani yaxshi biluvchi yuqori saviyali mutaxassis amalga oshirishi mumkin, deb hisoblaydi.

Bundan tashqari, T.N. Nesterova o'z o'quv qo'llanmasida valyuta operatsiyalarini tashkil qilish, valyuta mablag'larini jalb etish, tovar va xizmatlar uchun xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha operatsiyalar, bank o'tkazmasi, inkass, akkreditiv, tashqi iqtisodiy faoliyatni milliy va xorijiy valyutada kreditlash, forfetlash, valyutani sotish bo'yicha operatsiyalar, valyuta xatarlarini sug'urtalash yo'nalishlari bo'yicha o'z tadqiqot ishlarini olib borgan.

A.N. Ivanov bank "xizmati" va bank "operatsiyasi" singari iqtisodiy kategoriyalarni to'g'ri farqlash lozimligini, shuningdek ular o'rtasidagi sezilarli farqlar mavjudligini belgilab o'tgan. Mazkur olim bank xizmatlari sohasidagi o'z tadqiqotlari davomida "xizmatlar" va "operatsiyalar"larni umumlashtiruvchi quyidagi terminologik jadvalini tuzib chiqqan (2-jadval):

¹³ Нестерова Т.Н. Банковские операции. – М., 2020.

Bank xizmati va operatsiyalarining tavsifi ¹⁴

Xizmat	Operatsiya
O'zgaralar yordam ko'rsatuvchi faoliyat Moddiy shakl va tabiat kuchiga ega bo'lish, o'zgartirish bilan bevosita band bo'lmagan mehnatning barcha turlari Bajarish jarayonida yangi mahsulot yaratilmasdan balki mavjud eski mahsulotning sifatini o'zgartiradigan faoliyat turlari	O'ziga xos bo'lgan faoliyat Bir maqsad uchun birlashtirilgan bir qancha faoliyatlar Mijoz topshirig'i bilan bajariladigan komission yoki vositachilik operatsiyalari Yagona iqtisodiy vazifani hal qilishga qaratilgan yalpi o'zaro bog'liq bank faoliyatlari

2-jadvalda “xizmat” va “operatsiyalar” o'rtasidagi farqlar ko'rsatilgan. Bir tomondan, bular asosiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi ma'lum bir xususiyatlarni bildirsa, ikkinchi tomondan – ma'lum bir maqsadga erishishga qaratilgan faoliyatni bildiradi.

Bank xizmatlari va operatsiyalarning ma'nosini tushunishda ingliz tilidagi “service” va “operation” so'zlarining semantikasini (so'zning ko'p ma'nolarga ega bo'lishi) tahlil qilinsa, qiziq bir faktni kuzatish mumkin. “Service” so'zining semantikasi quyidagi farqlanuvchi xususiyatlarni ajratib olish imkoniyatini beradi: mijozga yordam berish yoki daromad olishida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyat, ma'lum bir ehtiyojlarni qanoatlantiruvchi tizim, doimiy ravishda ishlatilishi mumkin bo'lgan maslahat va yuqori toifali yordam.

“Operation” so'zining semantikasi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi: harakat holati, faoliyat, harakat, faoliyatlar yaxlitligi, faoliyat amalga oshirilayotgan holat.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida banklarda o'z mablag'larini joylashtiruvchi korxonalarining moliyaviy holati bilan kamdan-kam holatda qiziqiladi. Ko'pchilik holatlarda faqat qarz olgan korxonalarining moliyaviy holati ustidan nazorat o'rnatilgan. Ammo ta'kidlab o'tish joizki, barqaror resurs bazasi bankning moliyaviy holati barqaror bo'lishi asosidir.

Xorijlik va mahalliy yetakchi iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarini tadqiq etish natijasida, tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirishga nisbatan mualliflik ta'rifi shakllantirildi.

Unga ko'ra, bank operatsiyasi – bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag'larini jalb etish hamda uni joylashishini nazarda tutuvchi, aniq iqtisodiy masalani hal etishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank va bank-mijozning harakatlari majmuidir. Demak, mijozlardan pul mablag'larini jalb etish, ularni joylashtirish va ushbu amaliyotlarni bajarishda aniq, oldindan belgilab olingan iqtisodiy masalalarni nazarda tutish zarurligi bank operatsiyalarining asosini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Moliyaviy globalizatsiya sharoitida O'zbekiston tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini amalga oshirish va uni rivojlantirish**

¹⁴ Иванов А.Н. “Банковские услуги: зарубежный опыт и российский опыт”, М., 2019.

tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston tijorat banklarida an’anaviy operatsiyalar tahlili va tijorat banklarining depozit va kredit operatsiyalari o‘rganilgan.

Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga sifatli xizmat ko‘rsatish va tijorat banklar faoliyatini transformatsiya qilish jarayonida olib borilgan ishlar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga imkoniyat yaratdi.

Jahonda banklar rasman paydo bo‘lganidan (XVII asr) boshlab, texnologik taraqqiyotning turli bosqichlarida iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan birinchilardan bo‘lib ular faoliyati transformatsiya qilinib kelinmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarning bank operatsiyalariga inqilobiy ta’siri esa bank operatsiyalarining xususiyatlari hamda banklararo global raqobatning yangi bosqichi shakllanishiga sabab bo‘ldi, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Banklarning kelib chiqish tarixidan ma’lumki, bank muassasasi bo‘sh turgan mablag‘larini yig‘ib, bir qator shartlar asosida ustama haq (foiz) bilan qarz berish ya’ni, hozirgi kredit berish asnosida tashkil topgan va bu hozirgi kungacha banklarning asosiy daromad keltiradigan xizmati hisoblanadi.

“Bank krediti” atamasi korxonaga yoki jismoniy shaxsga bank muassasasi tomonidan kredit shaklida beriladigan kredit miqdorini bildiradi. Shunday qilib, bank krediti – shaxs yoki korxonaga bank yoki boshqa moliya muassasasidan qarz olishi mumkin bo‘lgan umumiy pul miqdori. Qarz oluvchining bank krediti ularning har qanday kreditlarni to‘lash qobiliyati va bank muassasasi tomonidan berilgan kreditning umumiy miqdoriga bog‘liq¹⁵.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank depoziti bo‘yicha ko‘plab tariflar keltirilgan. Jumladan:

Depozit – yuridik va jismoniy shaxslarning bank operatsiyalari natijasida mijozlar hisobvaraqlarini ochish va yuritish, omonatlarni (depozit) qabul qilish va qarz majburiyatlari (depozit va omonat sertifikat, veksel, obligatsiya) ko‘rinishidagi o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarish bo‘yicha jalb etilgan mablag‘laridir¹⁶.

Depozitlar – bank qonunchiligi va tartiblariga muvofiq mijozlar (jismoniy va yuridik shaxslar) tomonidan bankka qo‘yilgan va ular tomonidan foydalaniladigan pul mablag‘lari¹⁷.

Bank depozitlari – saqlash uchun bank muassasalariga joylashtirilgan pul mablag‘laridan iborat. Bu depozitlar omonat hisobvaraqlari, chek hisobvaraqlari va pul bozori hisobvaraqlari singari depozit hisobvaraqlariga kiritiladi. Hisobvaraqa egasi hisobvaraqa shartnomasini tartibga soluvchi shartlarda ko‘rsatilganidek, omonatga qo‘yilgan mablag‘larni yechib olish huquqiga ega¹⁸.

¹⁵Alexandra Twin, Khadija Khartit. Understanding Bank Credit, electronic resource. <https://www.investopedia.com/terms/b/bank-credit.asp>

¹⁶ Каробова Г. Банковское дело. Учебник. – М.: Экономист, 2006г. – 107 с.

¹⁷ Ловрушина О. Банковское дело. Учебник. – М.: Кнорус, 2009г. – 91 с.


¹⁸ Julia Kagan, Khadija Khartit, Ariel Courage. How Bank Deposits Work. <https://www.investopedia.com/terms/b/bank-deposits.asp>

Banklarning depozit operatsiyalari – banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko‘ra muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalardir¹⁹.

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari banklarning resurs bazasida muhim o‘rin egallaydi. Tijorat banklarining depozit bazasi hajmi qancha ko‘p va mustahkam bo‘lsa, banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirish ko‘lami shuncha kengayadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar (jalb etilgan mablag‘lar) tashkil etib, ular jami bank resurslarining tarkibida 85-90 foizdan iborat bo‘ladi. Majburiyatlarning muddati va vujudga kelish manbasiga qarab, “barqaror” va “beqaror” mablag‘larga, ular uchun to‘lanadigan harajatlar miqdoridan kelib chiqib, “arzon” va “qimmat” mablag‘larga ajratish mumkin²⁰.

Tahlillarga ko‘ra, tijorat banklari jami depozitlari 2017-yil 1-yanvar holatiga 37183 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, muddati 1 yildan yuqori bo‘lgan depozitlar 12,64 fizini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilgacha bo‘lgan davr mobaynida ijobiy tomonga o‘zgarib jami depozitlar 156 190 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shunda muddati bir yildan yuqori bo‘lgan barqaror resurs hisoblangan depozitlar salmog‘i 28.9 foizni tashkil etgan. Bu esa yildan-yilga tijorat banklari resurslari mustahkamlanib, uzoq muddatli barqaror resuslar jalb qilinayotganligini ko‘rsatadi.



1-rasm. O‘zbekiston tijorat banklarining aholi va yuridik shaxslar depozitlari qoldiqlari ²¹ (mlrd. so‘m)

¹⁹ Saidov D. Tijorat banklari depozit operatsiyalarining bank resurs bazasini mustahkamlashdagi o‘rni. // Xalqaro moliya va hisob. №4-5. 2018-yil.

²⁰ Omonov A., Qoraliyev T. Pul, kredit va banklar. Darslik. – T.: TMI, 2012 y. - 262 b.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muammlif tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, joriy yilning birinchi yanvar holatiga ko‘ra, tijorat banklarining aholi omonatlari 37.3 trln. so‘m va yuridik shaxslarning depozitlari 118.9 trln. so‘mni tashkil etib, mazkur ko‘rsatkich mos ravishda 2020-yil birinchi yanvar holatiga nisbatan 3,07 va 2,50 koeffitsentga oshganligini ko‘rish mumkin.

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlari to‘g‘risida ma‘lumot (muddati va shaxs turi bo‘yicha)²² (mlrd.so‘m)

№	Ko‘rsatkich nomi	01.01.2018-y	01.01.2019-y	01.01.2020-y	01.01.2021-y	01.01.2022-y
	Aktivlar	166632	214420	272727	366121	444922
	Jami kredit	110572	167391	211581	276975	326386
<i>Shundan (kredit berilgan subyektiga ko‘ra):</i>						
1	Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar	13600	24427	39934	54888	69496
2	Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	96972	142964	171647	222087	256889
<i>Shundan (kredit muddatiga ko‘ra):</i>						
1	Qisqa muddatli kreditlar	4753	8663	17955	28250	33399
2	Uzoq muddatli kreditlar	105819	158728	193626	248725	292986
<i>Shundan (valyuta shakliga ko‘ra):</i>						
1	Milliy valyutadagi kreditlar	41734	73864	110633	138868	163723
2	Xorijiy valyutadagi kreditlar	68838	93527	100947	138106	162663

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning 1-yanvar holatiga mamlakatimizda tijorat banklarning jami kreditlar hajmi jami aktivlarning 73,4 foizini tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 2018-yilda (1-yanvar holatiga) 66,4 foiz, 2019-yilda 78,1 foiz va 2020-yilda 77,6 foizni tashkil etib, yillar davomida ularning nisbati deyarli o‘zgarishsiz bo‘lgan. Shuningdek, 2022-yilning 1-yanvar holatiga jami kreditlarning 21,29 foizini jismoniy va 78,71 foizini yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar tashkil etib, so‘ngi 5 yil davomidagi o‘rtacha ulushiga nisbatan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 9,0 foizga oshgan. Bundan tashqari, 2022-yil 1-yanvar holatiga jami kreditlarning 10,23 foizini qisqa muddatli va 89,76 foizini uzoq muddatli kreditlar tashkil etib, mazkur kreditlarning 50,2 foizi milliy valyuta va 49,8 foizi xorijiy valyuta ko‘rinishida ajratilgan (3-jadval).

²² O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlari. www.cbu.uz

4-jadval**AT “Asakabank” kredit portfelining tarmoq tarkibi, foizda²³**

	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Sanoat	85,5	80,9	84,7	83,5	82,3
Qishloq xo'jaligi	3,5	5,9	5,1	6,8	8,9
Transport va kommunikatsiya	0,6	0,7	2,2	2,4	1,6
Qurilish	6,3	7,9	1,5	1,4	1,5
Savdo va umumiy ovqatlanish	2,5	3,6	5,9	5,4	5,1
Moddiy-texnika ta'minoti	0,2	0,6	0,0	0,0	0,0
Uy-joy kommunal xo'jaligi	1,4	0,3	0,4	0,4	0,6
Jami	100	100	100	100	100

Yuqorida tahlil obyekti bo'lgan AT Asakabank va AT Turonbankning kredit va depozit xizmatlarini takomillashtirish borasidagi tajribalarini tahlil qilish mumkin.

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, AT Asakabankda kredit portfelining diversifikatsiya darajasi ta'minlanmagan: kreditlarning 80 foizdan ortiq qismi sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning hissasiga to'g'ri keladi.

Xalqaro bank amaliyotida umumqabul qilingan mezonga ko'ra, tijorat banklari kredit portfelining tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya darajasi 25 foizdan oshmasligi lozim.

5-jadval**AT “Turonbank” kredit portfelining tarmoq tarkibi,²⁴ foizda**

	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Sanoat	40,4	23,9	47,3	44,6	48,0
Qishloq xo'jaligi	9,1	15,9	17,9	28,9	29,4
Transport va kommunikatsiya	7,4	9,2	5,9	4,1	2,9
Qurilish	20,0	24,3	15,7	11,2	9,3
Savdo va umumiy ovqatlanish	17,5	20,0	11,7	10,3	9,5
Moddiy-texnika ta'minoti	1,8	4,6	0,4	0,2	0,3
Uy-joy kommunal xo'jaligi	3,9	2,1	1,2	0,7	0,5
Jami	100	100	100	100	100

5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rish mumkinki, AT Turonbank kredit portfelining diversifikatsiya darajasi past. 2021-yil yakuniga ko'ra, AT Turonbank kreditlarining 48,0 foizi sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning

²³ Jadval muallif tomonidan AT “Asakabank”ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

²⁴ Jadval muallif tomonidan AT “Turonbank”ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, qishloq xo'jaligiga berilgan kreditlarning Turonbankning kredit portfelidagi ulushi 2021-yilda 29,4 foizni tashkil etdi.

6-jadval

AT "Asakabank" tasniflangan kreditlarining tarkibi, foizda²⁵

	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Standart kreditlar	92,03	87,20	84,83	86,91	92,03
Substandart kreditlar	6,75	12,19	11,29	9,84	3,14
Qoniqarsiz kreditlar	0,73	0,29	1,51	0,67	3,19
Shubhali kreditlar	0,44	0,18	1,38	1,04	0,81
Umidsiz kreditlar	0,05	0,14	0,99	1,54	0,83
Jami	100	100	100	100	100

Tijorat banklari kredit xizmatining takomillashganlik darajasini tavsiflovchi muhit ko'rsatkichlardan biri tasniflangan kreditlar tarkibining optimalligi va tahlil qilingan davr mobaynida ijobiy o'zgarganligidir.

6-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rish mumkinki, 2017-2021-yillarda AT Asakabank tasniflangan kreditlari tarkibining yomonlashishi yuz bergan. Ya'ni, 2021-yilda 2017-yilga nisbatan umidsiz kreditlarning tasniflangan kreditlarning umumiy hajmidagi salmog'i sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, mazkur davrda qoniqarsiz va shubhali kreditlarning tasniflangan kreditlar hajmidagi salmog'i oshgan.

7-jadval

AT "Turonbank" tasniflangan kreditlarining tarkibi, foizda²⁶

	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Standart kreditlar	95,81	97,92	99,18	98,79	91,69
Substandart kreditlar	2,54	1,86	0,45	0,15	5,02
Qoniqarsiz kreditlar	1,55	0,18	0,33	0,67	0,81
Shubhali kreditlar	0,01	0,0	0,02	0,04	0,98
Umidsiz kreditlar	0,09	0,04	0,02	0,35	1,50
Jami	100	100	100	100	100

7-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rish mumkinki, 2017-2021-yillarda AT Turonbank tasniflangan kreditlari tarkibining yomonlashishi yuz bergan. Ya'ni, 2021-yilda 2017-yilga nisbatan standart kreditlarning tasniflangan kreditlar umumiy hajmidagi salmog'i 4,12 foizli punktga pasaygani holda, umidsiz kreditlarning salmog'i 1,41 foizli punktga oshgan.

Tijorat banklarining tasniflangan kreditlari tarkibi yomonlashishi kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan xaxira ajratmalari miqdori va darajasi oshishiga olib keladi (8-jadval).

²⁵ Jadval muallif tomonidan AT "Asakabank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

²⁶ Jadval muallif tomonidan AT "Turonbank"ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, AT Turonbankda 2017-2021-yillarda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori va brutto aktivlarga nisbatan darajasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda tasniflangan kreditlar tarkibi yomonlashganligi bilan izohlanadi.


Tasniflangan kreditlar tarkibi yomonlashishi kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari miqdori oshishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, kreditlarning daromadlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va sof foyda miqdori kamayishiga olib keladi.

8-jadval

AT "Turonbank"da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori va darajasi²⁷

	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
